Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 373.3
PEDAGOGIKA

# BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISHGA METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA

Oyazimxon Mutalipovna Jakbarova*
*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi*
✉ oyazimxonj@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Mazkur tezisda oliy ta'lim talabalari uchun boshlang'ich ta'lim pedagogikasi darslarida xususan 1-kurslarda innovatsion texnologiya va metodlardan samarali foydalanishning amaldagi holati va mavjud muammolari, dars jarayonida qo'llaniladigan interaktiv, didaktik o'yin texnologiyalariga asoslangan didaktik o'yinlardan samarali foydalanish usullari yoritilgan.

**Kalit so'zlar**

Boshlang'ich ta'lim, innovatsiya, ijtimoiy-pedagogik, didaktik o'yinlar, syujetli-rolli o'yin, interfaol metodlar, ijtimoiy rol, motivatsiya, hamkorlik, ijtimoiylashuv, stressiz ta'lim, interaktiv, imitatsion.

DOI: 10.5281/zenodo.21743090

## Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-noyabrdagi PQ–4512-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ta'lim sifatini oshirish konsepsiyasi"da o'qituvchilar faoliyatida interaktiv metodlar, xususan, o'yin asosidagi yondashuvlarni tatbiq etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijtimoiy faoliyatga tayyorlanishini ta'minlash zarurligi qayd etilgan. Shu bilan birga, 2023–2026 yillarda maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasida ham o'yin faoliyatini ta'limning asosiy tarkibiy elementi sifatida kiritish zarurati alohida ta'kidlangan.

Zamonaviy ta'lim tizimida ta'lim mazmunini yangilash, o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, o'yin asosidagi metodlar pedagogik jarayonda o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydigan, darsni qiziqarli, tushunarli va ta'sirchan qilishga xizmat qiladigan vosita sifatida keng qo'llanilmoqda.

O'yin faoliyati bolalarning tabiiy ehtiyojlaridan biri bo'lib, u orqali ular dunyoni anglaydi, o'z ijtimoiy rolini shakllantiradi va faol fikrlashga o'rganadi. Psixolog L.S. Vygotskiy o'yin faoliyatini bola tafakkurining asosiy shakli, rivojlanish vositasi deb hisoblagan. Shu boisdan o'yin metodlari ta'limga integratsiya qilinishi nafaqat bilim berishga, balki bolalar ongini shakllantirishga, ularni hayotiy vaziyatlarga tayyorlashga yordam beradi.

O'yin asosidagi metodlarning samaradorligi bir necha jihatdan ko'zga tashlanadi:

Bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirish: o'yinli mashg'ulotlarda ishtirok etgan o'quvchi bilimni mustaqil topishga, uni amalda qo'llashga o'rganadi.

Motivatsiya va qiziqishni oshiradi: o'yinlar o'quvchini dars jarayoniga jalb qiladi, zerikishdan saqlaydi va ichki faollikni uyg'otadi. Ijodiy tafakkurni rivojlantiradi: o'yin davomida har bir o'quvchi o'z nuqtayi

nazarini ifoda etadi, yangi g‘oyalarni ilgari suradi.

Hamkorlikda o‘rganish va ijtimoiylashuv: guruhli o‘yinlarda bolalar bir-birini tinglash, fikr almashish, murosaga kelishni o‘rganadi. Stresssiz ta’lim muhiti: Shu jihatlari bilan o‘yin metodlari faqat maktabgacha yoki boshlang‘ich ta’lim emas, balki umumiy o‘rta, hatto kasbiy ta’lim tizimida ham o‘z o‘rniga ega. Bu metodlar o‘quv jarayonini jonlantiradi, ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan tarzda olib borish imkonini beradi.

O‘yin faoliyatining pedagogik mazmuni va uning ta’limdagi o‘rni beqiyos. Zamonaviy ta’lim jarayonining asosiy talabi — o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadlarga erishishda o‘yin asosidagi metodlar ta’limning samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Ta’limda o‘yin usullaridan foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalar tarkibiga kiradi va shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimini amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. O‘yin faoliyatining nazariy-pedagogik asoslari. O‘yin faoliyati — bu bola shaxsining ijtimoiylashuvi, rivojlanishi va bilimga bo‘lgan ehtiyojining shakllanishida markaziy rol o‘ynaydigan jarayondir. Psixolog L.S. Vygotskiy ta’kidlaganidek, o‘yin — bola psixikasining tabiiy rivojlanish bosqichlaridan biri bo‘lib, uning intellektual va ijtimoiy shakllanishiga zamin yaratadi Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, o‘yin metodlari quyidagi didaktik funksiyalarni bajaradi:

**Tarbiyaviy:** o‘yin orqali axloqiy fazilatlar (do‘stlik, halollik, mashaqqatga bardoshlilik) shakllanadi;

**Ta’limiy**: bilim, ko‘nikma va malakalar mustahkamlanadi;

**Rivojlantiruvchi:** tafakkur, nutq, xotira, diqqat, muammoli vaziyatda harakat qilish ko‘nikmalari rivojlanadi;

**Motivatsion:** darsga qiziqish ortadi, ichki o‘zlashtirish ehtiyoji yuzaga keladi.

O‘yin metodlarining ta’limdagi o‘rni va afzalliklari: O‘yin asosidagi metodlarning ta’limdagi o‘rni ularning bolaning shaxsiy faolligini oshirishi, mustaqil fikrlashga undashi, va ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishi bilan belgilanadi. Bu metodlar:

- o‘quvchilarni darsga jalb qiladi,
- mustaqil fikrlashga o‘rgatadi,
- bilimlarni hayotiy holatlar bilan bog‘laydi,
- ko‘proq eslab qolishga yordam beradi.

O‘yin shaklidagi metodlarga quyidagilar kiradi:

- rolli o‘yinlar;
- imitatsion (tasviriy) o‘yinlar;
- mantiqiy-didaktik o‘yinlar;
- harakatli o‘yinlar;
- interaktiv muammoli o‘yinlar (masalan, “Aqliy hujum”, “Krossvordlar”, “Topshiriqli zanjirlar” va boshqalar).

**Syujetli-rolli o‘yinlar**




Bunday metodlar nafaqat maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda, balki umumiy o‘rta maktab, kasb-hunar ta’limi va hatto oliy ta’limda ham keng qo‘llaniladi. Muhimi, o‘yinlar didaktik maqsadga yo‘naltirilgan, mavzuga mos va pedagogik jihatdan asoslangan bo‘lishi lozim. Ta’limda o‘yin asosidagi metodlardan foydalanish —bu metodlar bolalarda bilimga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi, ularni o‘qitish jarayoniga faol jalb etadi va yakuniy natijada ta’lim samaradorligini oshiradi. O‘yin metodlari orqali o‘quv jarayoni tabiiy, hayotiy va emotsional jihatdan boyitilgan bo‘lib, o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan ichki motivatsiyani uyg‘otadi, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, guruhda ishlash, o‘z nuqtai nazarini asoslash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Ayniqsa, hozirgi kunda axborot oqimi tezlashgan, yoshlarning diqqati qisqa vaqt ichida turlicha stimullarga yo‘naltirilayotgan sharoitda o‘yin uslubidagi metodlar o‘quv jarayonining qiziqarli, interaktiv, emotsional boy shaklga aylanishini ta’minlaydi. Pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan, o‘yin shaxsda ijodkorlik, o‘zini ifoda qilish, tashabbus ko‘rsatish, xatodan qo‘rqmaslik, erkin fikrlash kabi ijobiy xususiyatlarni uyg‘otadi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1-bosqich boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi darslarida innovatsion texnologiya va metodlardan samarali foydalanish ularni shunchaki qo‘llash bilan emas, balki darsning maqsadi, mazmuni va bosqichlariga muvofiq ravishda tizimli integratsiyalash bilan bog‘liq. Didaktik o‘yinlarga asoslangan multimedia topshiriqlari, amaliy hamda seminar darslarida takrorlash olgan bilimlarini mustahkamlash hamda aqliy salohiyatlarini o‘sishiga hissa qo’shadi. Mazkur pedagogik-psixologik va metodik vositalarni didaktik tamoyillar asosida qo‘llash talabalar faoliyatini optimallashtirish, vaqt tejamkorligini ta’minlash va ta’lim natijadorligini oshirish imkonini beradi. Shunday qilib, innovatsion texnologiya va metodlarni maqsadli va tizimli qo‘llash boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi darslarida intensiv ta’limni tashkil etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.S. Abdullayeva, A.A. Xoliqov, D.R. Farsaxonova, S.V. Muhammadiyeva, M.V. Sheranova —”Umumiy pedagogika” (pedagogika nazariyasi va pedagogika tarixi modullarini o‘z ichiga olgan darslik), Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.

2. I.G.Mamajonov, O.M.Jakbarova —”Umumiy pedagogika”—Omadbek print number one nashriyoti Andijon-2025

3. O.M.Jakbarova “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi”- Omadbek print number one nashriyoti Andijon-2026

4. Abdinagim Bekbergenov —”Pedagogika fanlarini o‘qitishda metodlardan foydalanish yo‘llari” – Modern Science and Research, 2023

5. G.X.Abdullayeva —”Boshlang‘ich ta‘limda o‘yin metodikasi” – Samarqand: SamDU, 2022.

6. N.Ishmuxamedova —”Pedagogik texnologiyalar” – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

7. M.Sharipova —”Zamonaviy darsda o‘yin yondashuvlari” Ilm va taraqqiyot jurnali, 2023.